

Tashqi savdo aylanmasi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport ko'rsatkichlari
- III. Import ko'rsatkichlari
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 41,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,8 mlrd AQSH dollariga yoki 7,4 foizga oshdi.

Tashqi savdo aylanmasi*
yanvar-iyun, mln AQSH dollari



TSAning umumiy hajmida eksport 15,9 mlrd AQSH dollarini (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 8,8 foizga kamaygan), import esa 25,1 mlrd AQSH dollarini (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 21,0 foizga oshgan) tashkil etdi. Natijada 9,3 mlrd AQSH dollari miqdorida manfiy saldo qayd etildi.

Ayni paytda oltinni hisobga olmaganda, tovarlar eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,7 foizga o'sib, 8,2 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi.

* Press-relizda oldingi yillar uchun keltirilgan barcha raqamlar yillik bojxona va statistika ma'lumotlari asosida qayta hisob-kitob qilingan.

O'zbekistonning yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
yanvar-iyun, mln AQSH dollari

	2024-y.	2025-y.	2026-y.
Xitoy	5 892,9	6 850,9	9 471,3
Rossiya Federatsiyasi	5 729,4	6 060,2	7 013,9
Qozog'iston	1 913,6	2 212,2	2 784,6
Turkiya	1 450,1	1 348,2	1 397,6
Afg'oniston	458,0	718,8	1 079,9
Koreya Respublikasi	1 068,9	843,0	940,0
Fransiya	606,9	681,8	890,9
BAA	275,5	560,9	807,7
Qirg'iz Respublikasi	381,5	430,8	624,6
Germaniya	508,0	655,6	623,2
Turkmaniston	622,7	549,4	598,9
Hindiston	402,7	641,5	598,1
Gonkong*	48,6	72,0	594,7
AQSH	467,5	448,7	530,9
Belarus	320,4	410,1	527,0
Tojikiston	311,5	320,7	434,6
Eron	221,5	221,9	304,8
Italiya	218,9	205,7	264,3
Vetnam	90,2	128,4	213,1
Ukraina	101,5	151,9	206,1

O'zbekiston jahonning 195 dan ortiq mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (23,1 foiz), Rossiya Federatsiyasi (17,1 foiz), Qozog'iston (6,8 foiz), Turkiya (3,4 foiz) va Afg'oniston (2,6 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Ekspart tarkibida tovarlar ulushi 60,9 foizni tashkil etadi. Shundan sanoat tovarlari – 15,2 foiz, turli tayyor mahsulotlar – 8,6 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 8,3 foiz, kimyoviy moddalar va shu kabi mahsulotlar esa 8,1 foizga to'g'ri keladi.

* Xitoy maxsus ma'muriy hududi

II. Eksport ko'rsatkichlari*

yanvar-iyun


Tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami eksport	17 401,0	15 862,3	133,1	91,2	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 212,6	1 321,6	143,2	109,0	7,0	8,3
Ichimliklar va tamaki	92,0	127,7	158,1	138,8	0,5	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	135,3	150,0	84,6	110,8	0,8	0,9
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	732,0	772,8	125,0	105,6	4,2	4,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	31,6	61,5	160,5	194,4	0,2	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	972,6	1 281,1	118,9	131,7	5,6	8,1
Sanoat tovarlari	1 960,1	2 407,9	94,9	122,8	11,3	15,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	478,4	632,9	80,6	132,3	2,7	4,0
Turli xil tayyor buyumlar	700,0	1 364,5	124,7	194,9	4,0	8,6
Boshqa tovarlar	6 517,9	1 544,2	154,4	23,7	37,5	9,7
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	6 492,1	1 503,8	154,8	23,2	37,3	9,5
Xizmatlar	4 568,5	6 198,2	145,2	135,7	26,3	39,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi

2026-yil yanvar-iyun, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi (14,9 foiz), Xitoy (9,0 foiz), Afg'oniston (6,1 foiz), Qozog'iston (4,5 foiz), Fransiya (4,5 foiz), Gonkong (3,4 foiz), Turkiya (3,3 foiz), Qirg'iz Respublikasi (2,9 foiz) va Birlashgan Arab Amirliklari (2,2 foiz) bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi hissasi 50,0 foizdan oshdi.

* "Boshqa tovarlar" guruhidagi nomonetar oltindan tashqari qimmatbaho metallar eksporti hajmlari "Sanoat tovarlari" guruhidagi rangli metallar tarkibida aks ettirilgan

XSST bo'yicha eksport tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-iyun

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 321,6	109,0
05	Sabzavotlar va mevalar	899,5	103,1
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	299,1	121,7
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	28,1	70,4
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	25,4	2,6 b.
00	Tirik hayvonlar	17,9	2,6 b.
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	16,9	105,0
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	13,1	153,5
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	10,4	2,4 b.
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	9,3	128,1
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	1,9	102,5
1	Ichimliklar va tamaki	127,7	138,8
11	Ichimliklar	85,2	2,1 b.
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	42,5	81,2
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	150,0	110,8
28	Metall rudalari va metall parchalari	44,1	3,7 b.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	33,0	65,6
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	28,9	91,2
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	22,0	118,7
25	Qog'oz massasi va makulatura	12,5	101,5
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	7,4	83,1
24	Probka va yog'och-taxtalar	1,2	149,4
23	Tabiiy kauchuk	0,8	86,1
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,1	0,0
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	772,8	105,6
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	422,2	154,3
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	232,9	65,6
35	Elektr toki	116,2	113,4
32	Ko'mir, koks va briketlar	1,5	138,0
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	61,5	194,4
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	59,6	188,9
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	1,8	35,0 b.
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 281,1	131,7
52	Noorganik kimyo moddalari	789,1	145,5
56	O'g'itlar	207,8	100,0
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	138,9	119,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	43,0	113,7
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	32,3	146,5

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	21,0	144,4
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	21,0	160,0
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	14,4	170,0
51	Organik kimyo moddalari	13,6	135,5
6	Sanoat tovarlari	2 407,9	122,8
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	975,9	120,7
68	Rangli metallar	882,0	112,7
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	175,2	135,6
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	147,0	148,1
67	Cho'yan va po'lat	144,6	2,1 b.
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	31,8	132,7
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	20,0	177,6
62	Rezina buyumlari	15,9	115,8
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	15,5	69,2
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	632,9	132,3
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	136,0	122,1
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	130,4	94,6
784	shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari	111,8	95,9
79	Boshqa transport uskunolari	115,0	164,2
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	89,9	127,7
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	63,6	2,1 b.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	57,6	4,0 b.
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	35,2	88,1
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	3,2	128,0
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,0	108,1
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 364,5	194,9
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	682,5	3,7 b.
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	629,9	131,4
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	26,5	2,8 b.
85	Poyabzal	12,4	167,4
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	5,8	56,1
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4,1	129,3
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	3,2	88,2
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	0,3	54,7
9	Boshqa tovarlar	1 544,2	23,7
97	Nomonetar oltin (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	1 503,8	23,2
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo'yicha tasniflanmagan tovarlar	40,4	156,7


2026-yilning yanvar-iyun oylarida 1 086,7 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,8 foizga yoki 8,5 ming tonnaga ko'paygan.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar-iyun

	2025-yil		2026-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	1 078,2	847,1	1 086,7	872,9
mevalar va rezavorlar	198,2	250,4	158,5	240,6
gilos	34,0	71,9	25,2	59,9
quritilgan uzum	47,0	62,9	47,7	58,0
shaftoli	32,9	31,4	35,0	37,2
o'rik	54,1	40,7	25,2	30,5
quritilgan olxo'ri	22,0	30,6	15,9	29,8
quritilgan o'rik	8,1	13,0	9,4	25,2
sabzavotlar	454,9	156,5	504,3	190,3
piyoz	262,9	73,7	277,5	82,1
karam	126,4	48,5	137,8	53,8
pomidor	28,6	23,5	32,2	33,8
sabzi	34,1	6,9	51,3	11,9
sarimsoq	2,9	3,9	5,4	8,7
tarvuz va qovun	144,8	34,3	128,6	41,0
yeryong'oq va yong'oqlar	12,2	29,3	12,4	28,3
mosh	32,8	30,0	35,0	33,3
boshqa	235,2	346,6	248,0	339,3


2026-yilning yanvar-iyun oylarida meva-sabzavotlar eksporti 872,9 mln AQSH dollarini tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 3,0 foizga oshgan bo'lib, uning umumiy eksportdagi ulushi 5,5 foizga teng bo'ldi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yilning yanvar-iyun oylarida 1,6 mlrd AQSH dollari qiymatidagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi. Bu umumiy eksport hajmining 10,1 foizini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 24,1 foizga oshgan.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida asosiy ulush tayyor to'qimachilik mahsulotlari (52,6 foiz) hamda ip-kalavaga (31,1 foiz) tegishli bo'ldi.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

2026-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra xizmatlar eksporti hajmi 6,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, umumiy eksport hajmidagi ulushi 39,1 foizga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 35,7 foizga o'sdi. Xizmatlar eksporti tarkibida asosiy ulush sayohat (turizm) (52,9 foiz), transport xizmatlari (31,6 foiz), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,8 foiz) hamda boshqa ishbilarmonlik xizmatlariga (3,0 foiz) tegishli bo'ldi.

III. Import ko'rsatkichlari

Mazkur davrda import hajmi 25,1 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan import 21,0 foizga o'sgan). Uning tarkibida asosiy ulush mashina va transport uskunalariga (32,8 foiz), sanoat tovarlariga (14,8 foiz), shuningdek, kimyoviy moddalar va shu kabi mahsulotlarga (12,1 foiz) to'g'ri keladi.


Tovarlar importi dinamikasining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida, 2025-yilning mos davriga nisbatan, tovarlar importi hajmi 4,0 mlrd AQSH dollariga oshib, 22,2 mlrd AQSH dollarini, xizmatlar importi esa 3,0 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasining importi tarkibi *
yanvar-iyun

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	20 779,2	25 148,9	110,4	121,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 957,2	2 821,7	114,0	144,2	9,4	11,2
Ichimliklar va tamaki	151,5	184,5	132,9	121,7	0,7	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	673,4	757,1	141,9	112,4	3,2	3,0
Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 869,2	2 229,6	88,7	119,3	9,0	8,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	235,3	317,1	143,6	134,8	1,1	1,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 598,3	3 031,1	113,2	116,7	12,5	12,1
Sanoat tovarlari	3 324,4	3 729,6	117,0	112,2	16,0	14,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	6 599,8	8 253,3	97,1	125,1	31,8	32,8
Turli xil tayyor buyumlar	736,0	866,3	108,5	117,7	3,5	3,4
Xizmatlar	2 634,2	2 958,7	165,4	112,3	12,7	11,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

O'zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2026-yil yanvar-iyun, mln AQSH dollari



Umuman, 2026-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 155 dan ortiq mamlakatdan tovar va xizmatlar import qilingan. Umumiy import hajmining 70,0 foizdan ortig'i Xitoy (32,0 foiz), Rossiya Federatsiyasi (18,5 foiz), Qozog'iston (8,2 foiz), Koreya Respublikasi (3,6 foiz), Turkiya (3,5 foiz), Germaniya (2,1 foiz) va Hindiston (2,0 foiz) kabi yirik hamkor davlatlar hissasiga to'g'ri keldi.

* "Boshqa tovarlar" guruhidagi qimmatbaho metallar importi hajmlari "Sanoat tovarlari" guruhidagi rangli metallar tarkibida aks ettirilgan


XSST bo'yicha import tovarlar tarkibi
2026-yil yanvar-iyun

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 821,7	144,2
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	761,1	167,3
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	480,8	142,1
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	362,7	148,6
05	Sabzavotlar va mevalar	325,7	135,6
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	265,6	119,0
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	203,9	138,8
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	180,2	141,9
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	156,6	143,0
00	Tirik hayvonlar	49,6	97,2
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	35,5	161,8
1	Ichimliklar va tamaki	184,5	121,7
11	Ichimliklar	113,0	118,8
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	71,5	126,8
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	757,1	112,4
24	Probka va yog'och-taxtalar	266,2	101,4
28	Metall rudalari va metall parchalari	175,0	98,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	93,4	165,6
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	71,3	161,2
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	59,0	142,8
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	35,7	99,3
25	Qog'oz massasi va makulatura	35,0	122,7
23	Tabiiy kauchuk	21,1	82,1
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo'yna	0,3	106,1
3	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	2 229,6	119,3
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 110,7	108,1
	shu jumladan, yoqilg'i va moylash mahsulotlari:	863,0	105,1
	- benzin	409,5	178,5
	- dizel	228,9	88,9
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	971,7	141,4
	shu jumladan, suyultirilgan gaz (propan)	86,3	3,6 b.
32	Ko'mir, koks va briketlar	92,2	103,2
35	Elektr toki	55,1	84,4
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	317,1	134,8
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	288,8	136,9
43	Hayvonlar va o'simliklarning qayta ishlangan moylari va yog'lari, hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	26,9	113,4
41	Hayvonlarning yog'lari	1,4	2,5 b.
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 031,1	116,7
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	966,4	102,1
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	544,8	113,2

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	mln AQSH dollari	O'sish sur'ati, foizda
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	436,7	118,1
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalar; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	343,6	139,8
51	Organik kimyo moddalar	262,1	150,6
52	Noorganik kimyo moddalar	196,5	131,6
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	158,2	115,1
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	66,9	121,1
56	O'g'itlar	55,9	142,1
6	Sanoat tovarlari	3 729,6	112,2
67	Cho'yan va po'lat	1 484,2	106,3
68	Rangli metallar	534,5	180,5
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	482,9	99,5
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	298,3	111,4
62	Rezina buyumlari	256,8	94,0
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	251,3	122,6
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	227,4	105,3
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	193,2	105,3
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,0	106,5
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	8 253,3	125,1
78	Avtomobil (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	2 003,7	131,7
781	<i>shu jumladan: asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	778,3	184,5
784	<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	904,3	112,7
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 383,2	144,4
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 209,3	101,8
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1 182,7	91,9
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar	840,9	196,0
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	839,7	156,0
79	Boshqa transport uskunalar	378,6	107,1
	<i>shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)</i>	202,0	87,7
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	336,8	177,5
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	78,1	57,6
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	866,3	117,7
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	286,3	126,5
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	259,9	107,1
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	107,1	132,9
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	95,5	109,9
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	72,9	124,9
85	Poyabzal	20,2	100,2
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyum, soat	14,4	151,4
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	10,1	86,5

2026-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3,0 mlrd AQSH dollarini yoki jami import hajmining 11,8 foizini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 foizga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi
2026-yil yanvar-iyun, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulushni sayohatlar (turizm) (43,8 foiz), transport xizmatlari (27,5 foiz), boshqa biznes xizmatlari (10,0 foiz), shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,0 foiz) tashkil etadi.

IV. Uslubiy ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasining tovarlar bo'yicha tashqi savdo statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan bir qatorda BMTning Xalqaro standart savdo tasnifi (XSST) ham qo'llanadi. Tovarlarga XSST kodlarini berish TIF TN va XSST o'rtasidagi o'tish kalitlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi: Bojxona qo'mitasining yuk bojxona deklaratsiyalari hamda Milliy statistika qo'mitasining davlat chegarasini kesib o'tmaydigan, bojxona deklaratsiyasiga kiritilmagan va rezidentlardan norezidentlar foydasiga o'tkaziladigan tovarlar haqidagi statistik kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish uchun dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlari statistikasi esa statistik kuzatuvlar asosida yuritiladi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo'shiluvchilar yig'indisi o'rtasidagi kichik farqlar ma'lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.



V. Aloqador boshqa havolalar

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hududlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

**Chop etishga mas'ul: Tashqi
savdo statistikasi boshqarmasi**

**Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)**

